

Po‘latov Sherdor Ne’matjonovich  
Toshkent davlat sharqshunoslik instituti,  
Sharq falsafasi va madaniyati  
kafedrasi tayanch doktaranti

## JAYNIZM DINIY-FALSAFIY TA’LIMOTI

**Annotatsiya:** Maqlolada qadimgi Hindistondagi jaynizm diniy falsafiy ta’limoti o’rganilgan. Jaynizm bu falsafiy ta’limot sifatida shakllanib, keyinchalik Hindistonda din darajasiga chiqan. Jaynizmning boshg‘oylaridan biri tirik jonga ozor bermaslikdir.

**Tayanch so‘z va iboralar:** Hindiston, falsafa, jaynizm, jiva, adjiva, samsara, ahimsa.

Bugungi kunda Hindiston va O‘zbekiston aloqalari rivojlanishning yuqori bosqichiga chiqdi. O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev Hindiston prezidenti Ram Nath Kovindning taklifiga binoan 2018 yil 30 sentyabr – 1 oktyabr kunlari davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatda bo‘lgan edi. Tashrif doirasida ilmiy-texnik hamkorlik, qishloq xo‘jaligi, turizm, harbiy ta’lim, adliya, sog‘liqni saqlash va tibbiyot fani, farmatsevtika, kosmosni tinch maqsadlarda tadqiq etish va boshqa sohalarga doir 20ta hujjat imzolandi.[1] Bu tashrif ilmiy doira vakillari oldiga Hindistonning siyosati, iqtisodi, tarixi, falsafasi, din va madaniyatini o’rganish va tahvil etish masalasini dolizarbligini oshiradi. Shuning uchun Jaynizm diniy falsafiy ta’limotini o’rganish katta ahamiyatga ega. Chunki Bgungi kunda Hindistonda 6 millionga yaqin tarafdarlariga ega. Jaynizm qadimdan bugungi kungacha o‘z ahamiyatini yo‘qatmay kelayotgan diniy ta’limotilardan biridir. Jaynizm diniy falsafiy ta’limot bo‘lib, uning falsafiy jihatini ko‘rib o’tamiz. Jaynizm ta’limotiga Rishabha ismli donishmand asos solgan. Rishabha yashab ijod etgan davrda, hali kishilar ovqat pishirishni, yozuv nimaligini, hunarmandchilikni bilishmagan. Jaynlarning ma’lumot berishlaricha qadimgi xalqlarni bularning barchasiga Rishabha o’rgatgan. U shuningdek nikohni joriy qilgan. Mayit(murda)larni ko‘mishni, xudolarga sajda qilishni buyurgan. Jaynizm ta’limotining eng mashhur vakili - Maruramanana Mahaviradir[2].

Mahaviraning an’anaviy biografiyasiga Buddanining biografiyasiga o‘xshab ketadi. U ham podshohlar sulolasidan chiqqan deb aytiladi. Mahavira Kashyap nomli podshoh urug‘iga taalluqli bo‘lib, hozirgi Bihar shtatining shimoliy qismida tavallud topgan. U ham Buddha singari 30 yoshida ota uyini tark etib, tarki dunyochilik qiladi. Mahavira o’n ikki yil davomida qalandar sifatida butun Hindistonni aylanib chiqqan, o’n uchinchi yili 43 yoshida oliy ilmga ega bo‘lib,

Jinna - «g'olib» degan nomga sazovor bo'ladi. Bu dunyoning ehtiroslarini engib, najot yo'lini topadi. Shundan keyin ham 30 yil o'z ta'limotlarini targ'ib qilib keladi va ko'pchilikni o'z ta'limoti tomonga og'dirib katta yutuqlarga erishgan deyishadi. Mahaviraning ta'limoti nafaqat oddiy fuqarolarni, balki oliy amaldorlar va hatto podshohlarni ham diqqat e'tiborini tortgan.

Jinna jaynistlarini ibodat qilish ob'ektiga aylangan. Uni iloh darajasigacha ko'tarishgan. Jinnaning bevosita shogirdlari o'n bitta ganadxarlar bo'lib, jaynistlar ularga ilohlarga sig'ingandek sig'inishardi.

Jaynistlarning bergen ma'lumotlariga ko'ra, Maxavira o'zidan keyin shogirdlariga 14 ta kitob qoldirgan. Eramizdan avvalgi III asrda Patilaputra shahrida bo'lib o'tgan umumjaynlar yig'ilishida jaynlarning «Sindxanta» nomli qonunlar majmuasi tuzilgan va tasdiqlangan. Ulardan kipro'q taqsinga sazovori «Kalpasutra» hisoblanadi.

Bu qonunlar majmuasida astronomiya, geografiya, kosmogoniya, xronologiya, xaykaltaroshlik, musiqa, raqs haqida ko'pgina nazariy va amaliy xarakterdagi ma'lumotlar berilgan. «Sindxanta»da braxmalarni tanqid qiluvchi elementlar mavjud. Jaynizm «Veda»ning muqaddasligini inkor etadi, ular braxmanlarning urf-odatlari ustidan kulishadi. Masalan: Braxmanlarning fikricha inson sovuq suvga tahorat qilsa, komillikka erishish mumkin emish. Agar shunday bo'lsa, unda qurbaqalar ,toshbaqalar va ilonlar to'liq komillikka erishishlari mumkin edi. Ahimsa agar jonzotlarga ozor yetkizmaslikka da'vat etgan bo'lsa, jaynistlar qurbanlik keltirishni qattiq qoralashgan.

Jaynistlar ayollarning monax bo'lishlariga va ilohiy kitoblarni o'qishlariga ruhsat berishgan. Braxmanlar bularni taqiqlashgan. Jaynistlar xudolarga emas, balki tritxankarlarga va jinna (g'olib)larga sajda qilishgan, lekin shunga qaramay jaynistlar bilan braxmanizm o'rtaida ko'p o'xhash tomonlari mavjud.

Jaynistlar sansaraga, karmaga va mokshaga ishonadilar, chunki uning maqsadi hayotdan qutilish ya'ni hayot azob-uqubatdan iborat. Bu dunyoqarashning maqsadi jamoaning hayotiga xizmat qilish darkor. Albatta braxmanizmdan farqli o'laroq jaynistlar fikricha, karma qonuni xudolarga qurbanlik keltirishga qarshi chiqqan. Jinna bu karma qonuni ustidan g'alaba qilganiga aytildi. Ahmoqona ishlaridan pirovard oqibatda hayotligida qutulish mumkin. Lekin eng asosiysi sansaradan qutulishdir. Bxagavatgita kabi jaynistlar ham dualistik ta'limotni ilgari surishgan. Agar Bxagavatgitada prakriti (materiya) va purusha (jon) haqida fikr yuritilsa, jaynistlar jonsiz (adjiva) va jonli (jiva) haqida fikr yuritadilar. Jonli narsa jonlantiriladigan narsa bilan tenglashtiriladi. Jaynlar uchun yer ham jonlidir. Albatta, havo, suv, yer va shuningdek o'simliklar ham his etishga ega, lekin qushlar, jonivorlar va insonlar beshta sezgi a'zolariga ega. Umuman, jiva (jonli) abadiy va

о‘tkinchi emas, lekin u ko‘pincha turli tuman moddiy niqobga o‘ralgan jonlarga bo‘linib, bir tanadan ikkinchi tanaga o‘tishi (sansara) mumkin. Biroq barcha jonli narsalarda bitta jon mavjud[3].

Bu yerda ahimsa ahdiga rioya qilish kerak. Jaynizmda moksha, jiva va ajiva to‘liq uzul-kesil ajralganligini anglatsa, ularni birlashtirishda karma rol o‘ynaydi, lekin Moksha ayni paytini o‘zida turli-tumandir. Bitta karma bizda tug‘ilayotgan oilani va tanimizning tabiatini aniqlasa, boshqasi esa hayotning davomiyligini aniqlaydi, uchinchisi esa lazzatga, extirosga munosabatni bildiradi. Jaynistlar fikricha, bu jiva bilan ajivani birlashishining asosini tashkil etadi « Uchta gavhar ». hayotiylik davrida qutulish uchun to‘g‘ri axloq-odob, to‘g‘ri bilim va to‘g‘ri ishonch bilishi zarurligidir.

To‘g‘ri ishonch bu trixankarning avtoritetiga ishonch, to‘g‘ri ahloq odob bu beshta ahdga rioyalari qilish va shuningdek kechirish, itoatkor bo‘lish, haqgo‘ylik, to‘g‘rilik ozodalik, o‘zini til bilishini, o‘ziga nisbatan qatiyatlik bo‘lishi, qurbanlik, tashqi dunyoga bog‘lanib qolmaslik, vazminlikdan iborat bo‘lmog‘i lozim. Uchinchi gavhar to‘g‘ri bilish, jaynistlarning gnoseologiyasidir. To‘g‘ri balki bu «men» va «men emas» jiva va ajiva, ya’ni jon va materianing real tabiatini bilishdir. Mukammal bilim va mukammal ishonch bir biri bilan qo‘shilib, mutloq butun boshqarishni tashkil etadi. Mutloq butun boshqarish to‘g‘ri ahloqni oldini oladi. To‘g‘ri axloqga tegishli barcha narsalar jaynizmda puxta ishlab chiqilgan. To‘g‘ri ahloqning mohiyati «beshta buloq ahd»ni (pancha-maxavrata) bajarishga bog‘liq. Buddhistlar buni pancha-shila deb ataydilar[4]. Shuni aytish kerakki, ahdning mazmuniga ko‘ra va ayniqsa birinchi ahd-jonli narsalarga ozor yetkazmaslik, tabiatning umum jonliligidan darak beradi. Bu tamoyillar haqida qisqacha to‘xtab o‘tamiz.

1. Jonli narsalarga ozor yetkazmaslik (Ahimsa). Uning asosida barcha narsalar jonli degan ta’limot yotadi, chunki nafaqat hayvonlar balki o‘simliklar ham jonga ega, chunki u oliy qudratdir. Bundan jaynistlar shunday xulosa chiqaradilar. Hayotning har qanday shakli ya’ni jonli narsalarning har qanday shakllari bilan egtyiotkorlik bilan munosabatda bo‘lishi kerak. Ahimsa agdiga binoan ov qilishlik, baliq ovlash, dehqonchilik qilinayotgan chog‘da ehtiyyot bo‘lish kerak, chunki yer chopilayotgan chog‘da mayda jonzotlarni o‘ldirib qo‘yish mumkin. Xatto qurt-qumirsqalarni o‘ldirib yuborishlik ham katta gunohdir.

Xatto jaynistlar ahimsa ahdini buzmaslik uchun biron bir chivinni yutib, yubormaslik uchun og‘zi va burunlariga doka tutib yuradilar. Jaynistlar uy hayvonlari va xatto erkinlikda yurgan yirtqich hayvonlarga ham g‘amxo‘rlik qiladilar. Hayotga bunchalik hurmat bilan qarashlik jon qanchalik kichik bo‘lishiga

qaramay, unga e’tibor bilan qarash kerak, chunki bu jon katta jonga aylanishi mumkin.

## 2. Yolg‘ondan o‘zini tiyish (Satya)

Doimo xaq gapni gapishtirish, gapirayotganda ham yaxshi, yoqimli va to‘liq, hayotga hurmat yuzasidan qaraydigan, maqsadi, haqiqat bo‘lishi kerak. Ochko‘zlik, qo‘rquv, g‘azab va shuningdek qo‘pollik, haqorat, surbetlik, ahdga qarshi bo‘lgan narsalardan qochish lozim. Satya (yolg‘ondan o‘zini tiya bilishlik) ahimsadan madad oladi chunki yolg‘on hayotga zulim o‘tkazadigan sabablarning bir ko‘rinishidir.

## 3. O‘g‘rilikdan o‘zini tiya bilishlik (Asteya)

Asteya (o‘g‘rilikdan o‘zini tiya bilishlik)ning asosini jaynistlar ahimsaga oborib taqaydilar. Faravonlik hayotning tashqi pardasi hisoblanadi, uni buzishlik, hayotga zarar yetkazadi. Ko‘rib turibmizki, birinchi uchta ahd boshqa kishilarning hayotga bo‘lgan munosabatlariga taaluqlidir. Kishilarning bir-birlariga bo‘lgan qarashlarini hamda insonning tabiatga munosabatini belgilaydi. Keyingi, ikkita ahd erkinlikni qidirishga qaratilgan.

## 4. O‘z ojizliklaridan erklarini tiyish (Braxmacharya).

Bu ahdning amalga oshishi uchun turmush qurishdan har qanday hirsiy lazzatlanishdan, shuningdek ma’naviy ojizlikdan masalan ilmidan keyin jannatga tushish umididan, umuman fikrda ijobiy his-hayajon tug‘diradigan narsalardan voz kechishlik.

## 5. Barcha ko‘ngil qo‘yishlikdan o‘zini tiya bilish (Aparigraxa)

Bu kishida lazzat uyg‘otadigan ob’ektlardek o‘zini tiyishga da’vat etadi[5].

Jaynizmda ma’naviy ideal bu donishmand avliyo hisoblanadi. Ozodlikka erishgan jon, boshqalarga namuna, mayoq vazifasini o‘tashi kerak. Bu idealni har bir kishi amalga oshirishi mumkin. Uning xatto qaysi varnaga taaluqli bo‘lishidan qat’iy nazar u butunlay individning xukmida, chunki u shaxsiy harakat, shaxsiy barkamolligi, shaxsiy ma’naviy jasurligi orqali amalga oshadi.

Shuning uchun materiyadan xalos bilgan jon g‘olib (jinna) va qahramon (vira) hisoblanadi. Uning qalbi cheksiz bilimga, ishochga kuch-qudratga va huzur halovatga ega bo‘ladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Jaynizm nafaqat din balki, chuqr axloqiy diniy falsafiy ta’limot hamdir. Jaynizmdagi asosiy g’oyalardan biri bu jonga ozor bermaslikdir. Bu yerda Jaynizm va buddizm bilan bo‘gliqligini ha ko‘rishimiz mumkin. Tirik jonga ozor berish bu barcha dinlarda axloqiy ta’limotlarda qoralangandir. Jaynizmdagi ahimsa g‘oyasi Hindiston otasti Mahatma Gandhi dunyoqarashi katta ta’sir ko’rsatganini va Hindiston milliy ozodlik harakatida yetakchi g‘oya sifatida bo‘lganligini tadqiqotlar orqali bilishimiz mumkin. Bu esa Jaynizm falsafiy ta’limotini o’rganishni muhim ahamiyatini oshiradi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘XATI**

1. <https://www.press-service.uz> (O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Hindistonga safari).
2. Аҳмедова М., Йўлдошев С., Шоматов О. Ҳинд Фалсафаси.-Т.: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2006. 19 бет.
3. Гусева Н. Р. Джайнизм. М., 1968. С 67.
4. V.A.Smith, The Early History of India, 3<sup>rd</sup> editon,Oxford,1914, page 347
5. Jinavijayaji, Kuvalayalama, Jaina Sahitya Samsodhaka, III., pp 167-168, Ahmeabad, 1922